

YAGONASAN, MUQADDAS VATANIM, SEVGI VA SADOQATIM SENGA BAXSHIDA, GO'ZAL O'ZBEKISTONIM!


www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:33 (66990)

2014-yil

18-avgust



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

Yoshlarga oid davlat siyosati – amalda

ISTIQLOL FARZANDLARI

Mustaqilligimizning 23 yilligi munosabati bilan poytaxtimizda «Yagonasan, muqaddas Vatanim, sevgi va sadoqatim senga baxshida, go'zal O'zbekistonim!» shiori ostida «Istiqlol farzandlari» deb nomlangan yoshlar festivali bo'lib o'tdi.

(Davomi 3-betda)




MAKTAB YARMARKASI

YANGI O'QUV YILI OLDIDAN EZGU TASHABBUS
KO'RSATISH YAXSHI AN'ANAGA AYLANDI

Xalq ta'limi vazirligi va qator tashkilotlar hamkorligida respublikamiz bo'yicha jami 1885 ta maktab yarmarkasi tashkil etilgan bo'lib, bu ota-onalarga farzandlari uchun 26 turdagi o'quv qurollari va maktab liboslarini xarid qilish imkonini beradi. Borish qiyin bo'lgan tog'li va cho'l hududlarida esa 130 ta ko'chma avtoda'konlar aholiga xizmat ko'rsatadi.

(Davomi 2-betda)



Sh. MAXMADIYEV olgan suratlar

Ushbu sonda:

«KIM KO'P
KITOB O'QIYDI?»

RESPUBLIKA
TANLOVI DAVOM
ETADI

2-bet

TA'TILDA
HUNAR
O'RGANDIK,
deydi xorazmlik
yoshlar

4-bet

Ingliz tilini
o'rganamiz!
Let's learn
English!

5-bet

HAKKA XOLA
NIMA DEYDI?

6-bet

«KIM KO'P KITOB O'QIYDI?» RESPUBLIKA TANLOVI DAVOM ETADI

Tadqiqotlarga ko'ra, kitob o'qish inson tafakkurini rivojlantiribgina qolmay, miya hujayralari faoliyatini oshirib, qon aylanish tizimini yaxshilaydi. Shunday ekan, insonning nafaqat ma'naviy, balki jismoniy kamolotida ham mutolaaning o'rni, ahamiyati beqiyos.

Shunday ekan, mutolaa zavqi sizga hamisha hamroh bo'lsin!
Aziz o'quvchilar! Xabaringiz bor, gazetamizning 2014-yil 9-iyun 23-sonida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi «Kamalak» respublika bolalar tashkiloti hamda «Tong yulduzi» gazetasi hamkorligida «Kim ko'p kitob o'qiydi?» an'anaviy respublika tanlovini e'lon qilgan edik.

1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni arafasida yakunlanadigan tanlovda faol ishtirok eting va eng ko'p kitob o'qiydigan o'quvchi nomini oling.

BIR-BIRIMIZGA KITOB SOVG'A QILAYLIK

5-sinf o'quvchisi Muzayyanabegimning shiori shunday

Muzayyanabegimning sevimli mashg'uloti kitob o'qish. Ta'til bo'lishiga qaramay, haftaning har chorshanba kuni ustoz boshchiligidagi o'qigan gazeta-jurnal va kitoblari yuzasidan o'rtoqlashadi.

Maktab, tuman miqyosida o'tkazilgan «Eng kitobxon oila», «Kitob – bebaho xazina», «Eng kitobxon o'quvchi» kabi tanlovlarda faol ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda.

– Muzayyanabegim Ibrohimjonova Farg'ona viloyati, Oltiariq tumanidagi 1-aniq va ijtimoiy fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 4-«B» sinfini a'lo baholar bilan yakunladi. O'quvchilarning tirishqoqligi, mehnatsevarligi, mas'uliyatligi, ijodkorligi-yu izlanuvchanligi bilan atrofdegilar mehrini qozongan. U o'ziga berilgan har qanday topshiriqlarni a'lo darajada bajaradi, – deydi sinf rahbari Saboxon Soliyeva.

– «Tong yulduzi» gazetasing har bir

sonini intiqlik bilan kutaman. Gazetada chop etilgan «Kim ko'p kitob o'qiydi?»

respublika tanlovi haqidagi e'lonni o'qib, unda ishtirok etishga ahd qildim. Chunki men kitob o'qishni juda yaxshi ko'raman. Uyda shaxsiy kutubxonam bor. Undagi kitoblarni menga yaqinlarim bayramlarda, tug'ilgan kunimda sovg'a qilishgan, – deydi Muzayyanabegim. – Ta'til davrida o'qigan adabiyotlarim orasida «Alpomish» dostoni, «Amir Temur o'gitlari», Xudoyberdi To'xtaboyevning «Jannati odamlar», «Peshonasiga televizor yopishib qolgan bolaning sarguzashtlari» kabi kitoblarni menga juda yoqdi. Bu asarlarni qayta-qayta o'qisam ham sira zerikmayman.

Aziz o'quvchilar! Siz ham Muzayyanabegim kabi kitobsevarsiz, shundaymi? Unda, albatta, bizga maktab yo'llang va «Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanlovi g'olibi bo'ling.



DALALARDAN TO'PLANGAN GAVHAR



Yurtimizda O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyevning asarlari kirib bormagan xonadon topilmasa kerak.

Asarlari kabi o'zi ham quvnoq yozuvchimi-mamlakatimiz Mustaqilligining 23 yilligi arafasida barchamiz uchun ibratli bo'lgan ajoyib bir ishni amalga oshiribdi. Adib bir necha oylar mobaynida Toshkent viloyatining barcha tumanlarida bo'lib fermerlar, tadbirkorlar, qo'yingki, bunyodkorlik ishlari bilan shug'ullanayotgan turli soha vakillari bilan uchrashib, ularning hayoti bilan yaqindan tanishibdi. Bu fidoyilik samarasi o'laroq «Yangi ohangda kuylayotgan viloyat» nomli kitob dunyoga kelibdi. Mazkur kitob taqdimotida

qatnashgan taniqli ijodkorlar yangi asar haqida o'zlarining samimiy fikrlarini bildirib, 83 yoshni qarshilayotgan ustoz yozuvchimizning tashabbuskorligini havas bilan e'tirof etdilar.

Biz kitob haqida alohida to'xtalishni lozim topmadik. Chunki bu yozuvchimizning asarlarini intiqlik bilan kutadigan bolajonlar, albatta, uni o'qib chiqadilar. Asosiysi esa adibimiz barchamiz uchun muqaddas bo'lgan Mustaqillik bayramiga munosi sovg'a hozirladi. To'yga to'yona bilan, deganlari shu-da!

Yusuf ABDULLAYEV

MAKTAB YARMARKASI

YANGI O'QUV YILI OLDDAN EZGU TASHABBUS
KORSAITISH YAXSHI AN'ANAGA AYLANDI

(Davomi. Boshi 1-betda)

– Oyijon, qachon maktab bozoriga boramiz? O'rtog'im Durbek yangi portfeliga hamma o'quv qurollarini solib, maktabga borishga taxt qilib qo'yibdi.

– O'g'lim, ertagayoq sen bilan maktab bozoriga borib, kerakli barcha o'quv qurollarini xarid qilamiz.

Ona shu so'zlar bilan o'g'lini xotirjam qilgach, xayolga toldi. Mustaqilligimiz sharofati bilan turmushimiz

farovon, dasturxonlarimiz to'kin. Do'konlarda hamma narsa bisyor.

Har yangi o'quv yili boshlanishi oldidan respublikamizning barcha viloyatlari-yu tumanlari, shahar va qishloqlarda maktab bozorlari tashkil etiladi.

Ilgari-chi? Onaning yodiga beixtiyor o'zining bolalik paytlari tushdi.

O'shanda oltinchimi yoki yettinchimi sinfda o'qir edi. Maktab formasini qidirib, ota-onasi bilan qancha do'konlarni aylanib, kechgacha sarson bo'lishgani yodida.

Mana bugun Nozima opa o'g'li Ibrohimni olib, poytaxtning Chilonzor savdo markazi yaqinida joylashgan «Maktab bozori»ga kelishdi. Voy-bo', peshaxtalarga qo'yilgan o'quv qurollarini ko'rsangiz, ko'zingiz quvnb, dilingiz yayraydi. Biri-biridan bejirim, chiroyli daftarlarning qay birini tanlashni ham bilmaysiz. Xaridorlar bilan gavjum yarmarkada sotuvchilarning qo'li-qo'lga tegmaydi, axir o'quv yilining boshlanishiga ham sanoqli kunlar qoldi-da. Onabola tezda o'zlariga kerakli o'quv qurollarini sotib olishdi. Ibrohimning ko'ngli xotirjam tortib, onasiga minnatdorchilik bildirdi.

Dilorom HOTAMOVA



Ona! Bu so'zni eshitishimiz bilan ko'z oldimizda mehribon, g'amxo'r, jonkuyar inson siyosi gavdalanadi.

Dunyodagi barcha onalar, eng avvalo, «Yurtimda tinchlik bo'lsin, bolam baxtli bo'lib, kelajakda hammaga yordami tegadigan, halol, mehnatkash inson bo'lib voyaga yetsin» singari ezgu orzular bilan yashaydi.

Aziz tengdosh, kelajakda onalarimizga munosib farzand bo'lib yetishish asosiy maqsadimizga aylansin. Chunki har bir orzu-niyatimizning ushalariga, yuksak marralarga erishishimizning kaliti, albatta, onamizning o'gitlari-yu

duolaridandir. Ular bergan oq sutni, tarbiyasini oqlamog'imiz darkor!

ONAJONIM — MEHRIBONIM

Buning uchun yaratilgan sharoitlardan to'g'ri foydalangan holda, vaqtimizni bilim olish va hunar egallashga sarflasak, yurtimizning gullab-yashnashiga o'z hissamizni qo'shsak, onalarimizni xursand qilgan bo'lamiz.

Nodirabegim OMIKXONOVA, poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 17-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi



ORZULARIM USHALAR BU YURTDA

Bugun iqtidorli tengdoshlarimning xalqaro miqyosda qo'lga kiritayotgan yutuqlarini eshitib, to'laqlinlab ketaman.

Ularga bo'lgan havas va ishtiyoqim oshib, yangi o'quv yiliga katta rejalar tuzaman. Bo'sh vaqtlarimda she'r mashq qilish, rasm chizishni yaxshi ko'rganim bois, «Tong yulduzi» gazetasi har bir sonini muntazam kuzatib boraman. Sevimli nashrim tengdoshlarimning muvaffaqiyatlari haqidagi xushxabarlarni yetkazib, meni orzularim sari yanada intilishga chorlaydi. O'tgan o'quv yilida turli bellashuvlarda ishtirok etib, ustozlar ishonchini oqlagan bo'lsam-da, hali orzu-maqsadlarim talaygina.

Zero, bizning yurtimizda yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar bisyor. Bu Vatanda esa orzularim, albatta, amalga oshajak!



Ra'no NORBOYEVA, Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi 17-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internatining 8-sinf o'quvchisi

YUKSAK CHO'QQILAR BIZNIKI BO'LSIN!

«Men nechun sevaman O'zbekistonni?» she'rini adabiyot darsligida o'qib, sevimli shoirimiz kabi Vatan haqida ko'nglimdagi tuyg'ularni anglab, savollarimga javob topgandim.

Ona yurtimizning betakror tabiati-yu, mittigina maysasi ham sevimli, aziz biz uchun. Yurtimiz esa havas qilsa, arzigulik. O'g'lari jannat misol, daryolari insonlarning ko'ngldek tiniq. Xalqimiz mehnatkash, mehmondo'st. Shuning uchun bo'lsa kerak, bugun qay bir tengdoshimni kuzatmay, biri Vatanimizni she'r yozishda, biri chizayotgan suratida, yana biri kuylayotgan qo'shig'ida tarannum etib, o'z iste'dodini namoyon etmoqda.



Bizga ilhom, shijoat, olam-olam imkoniyatlar bergan o'zingsan, Vatan! Biz Vatanni nafaqat sevimimiz, balki unga munosib bo'lib, asrab-avaylashimiz lozim. Bir-birimizni ezgu ishlarga yetaklab, to'garaklarga a'zo bo'lgan holda hunar egallashimiz, chet tillarini o'rganishimiz va Yurtboshimiz aytganlaridek, biz hech qachon hech kimdan kam bo'lmaganimiz va kam bo'lmashligimizni isbotlashimiz kerak.

Qutlug' 23 yoshing bilan qutlayman, mustaqil O'zbekistonim!

Sarvinov SULTONOVA, Andijon viloyati, Xo'jaobod tumanidagi 28-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi

Yoshlarga oid davlat siyosati – amalda

ISTIQLOL FARZANDLARI

(Davomi. Boshi 1-betda)

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim, Xalq ta'limi vazirliklari bilan hamkorlikda tashkil etilgan festivalda mamlakatimizning turli hududlaridan Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti, «O'zbekiston belgisi» ko'krak nishoni sohiblari, xalqaro olimpiadalar, turli sport musobaqalari, tanlovlar g'oliblari faol yoshlar ishtirok etdi.

Festival Mustaqillik va ezgulik monumenti poyiga gul qo'yish marosimi bilan boshlandi.

– Mustaqillik maydonida yurtimizning

baxtiyor yoshlari safida turganimdan juda xursandman, – deydi «Yurt kelajagi – 2013» ko'rik-tanlovi g'olibi, navoiylik Iftixor Xolxo'jayev. – El-yurt sha'n-shavkati, g'urur-iftixori, milliy davlatchiligimiz timsollaridan biriga aylangan mazkur maydon va undagi Baxtiyor ona haykali, Ezgulik arkasi Istiqlolimizning tobora mustahkamlanayotgani, el-yurtimiz farovonligi ortayotganining yorqin ifodasidir.

Shundan so'ng, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi va Simpoziumlar saroyini o'z ichiga olgan Ma'rifat markaziga sayohat uyushtirildi.

– Simpoziumlar saroyining ko'rk-u salobati, betakror bezaklari bizni lol qoldirdi, – deydi «Jasorat» medali sohibi, sirdaryolik O'ybek Ismoilov. – Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan



O'zbekiston Milliy kutubxonasi mamlakatimizda har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun ulkan imkoniyatlar yaratilganining yorqin namunasidir. Bu yerda Germaniya, AQSH, Xitoy, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Rossiya kabi o'ndan ortiq davlatdagi nufuzli kutubxonalar bilan hamkorlik o'rnatilgan. Kitobxonlar uchun xalqaro ilmiy-tadqiqot manbalaridan bepul foydalanish imkoni yaratilgan. Biz, yoshlar, bu e'tiborga munosib bo'lishimiz, tinch va farovon yurtda yashayotganimizga shukrona aytishimiz kerak.

Festival ishtirokchilarini, shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan yaqindan tanishtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi, O'zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida uchrashuvlar tashkil etildi.

Festival davomida muhtasham «Bunyodkor» stadioni bilan tanishuv hamda O'zbekiston futbol federatsiyasining xalqaro toifadagi hakami, FIFA referisi Ravshan Ermatov bilan uchrashuv va «Yurt iftixorlari» turkumida chop etilgan «Ravshan Ermatov: eng kuchli FIFA referisi» kitobining taqdimoti ishtirokchilar uchun, ayniqsa, ulkan taassurotlarga boy bo'ldi.

Festival doirasida «Turkiston» saroyining yozgi sahnasida taniqli san'atkorlar va yosh ijrochilar ishtirokida gala-konsert bo'lib o'tdi. Yoshlar festivalining rang-barang tadbirlari bir necha kun davom etdi.

Jamshid KAMOL



O'z muxbirimiz olgan suratlar

SHAHZODBEK

Musiq inson tarbiyasida muhim o'rin tutishini yaxshi bilasiz Bolaligidan san'atga mehr qo'ygan Shahzodbek Kibirov bo'sh vaqtini sevimli mashg'uloti – skripka chalish bilan o'tkazadi.



To'rt yoshidan «Olovuddin» bolalar guruhiga qatnay boshlagan tengdoshimiz hozirda Uspenskiy nomidagi Respublika musiqa maktabida skripka, fortepiano hamda vokal yo'nalishlarida tahsil olmoqda. U shu kungacha ko'plab ko'rik-tanlovlarda ishtirok etib, yigirmadan ortiq faxriy yorliqlarni qo'lga kiritgan.


Aziz tengdoshlar, sizlarni Shahzodbek bilan tanishtirar ekanman, kelgusida undan yanada go'zal kuylar kutib qolamiz.

Barno MAMAJONOVA,
Toshkent shahar,
Shayxontohur
tumanidagi
59-IDUMning
6-«B» sinf o'quvchisi

Axborot texnologiyalari rivojlangan bugungi kunda hayotimizni texnika vositalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Telefon, kompyuter, internet tarmog'i kabilar bizga aloqa vositasi, kerakli manbalarni topishda, dunyo yangiliklaridan xabardor bo'lishda alohida ahamiyatga ega bo'lsa-da, ularning salbiy ta'sirlaridan ko'z yuma olmaymiz. Yoshlarimiz ongini yet ta'sirlardan himoya qilishda yanada e'tiborliroq bo'lishimiz talab etiladi.

SIZ NIMA DEYSIZ?

Bundan tashqari, maktab yoshidagi bolalarning mobil aloqa vositalaridan tinimsiz foydalanishlari ularni darsdan chalg'itishi barobarida murg'ak vujudlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Mutaxassislarin ta'kidlashicha, mobil telefonlaridan foydalangan bolalarning aqliy rivojlanishi boshqalarnikiga nisbatan 15-20 foizga pasayar ekan. Endi o'ylab ko'raylik, qay birimiz aqliy yoki jismoniy jihatdan birovdan kam bo'lishni istaymiz?! Aniqi, barchamiz ham kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib yetishish, Vatanimizga munosib farzand bo'lish orzuidamiz, shunday emasmi, aziz tengdoshim?



Shahnoza MUHAMMEDOVA

TA'TILDA HUNAR O'RGANDIK, deydi xorazmlik yoshlar

Ta'til kunlarining oxirlab qolganiga qaramay, Xorazm viloyati «Barkamol avlod» bolalar markazi o'g'il-qizlar bilan gavjum. Biz bu yerda yosh ijodkorlar uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan tanishar ekanmiz, to'garaklar faoliyati bilan ham qiziqdik. Ushbu maskanning ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Hanifa opa Otajonova bilan bo'lgan suhbatimiz shu haqda kechdi.

– Viloyatimizdagi «Barkamol avlod» bolalar markazi o'tgan yili qayta ta'mirlanib, to'garak xonalarimiz zamonaviy tarzda jihozlandi. Markazda 3 ta yo'nalish bo'yicha 14 ta to'garak faoliyat yuritmoqda. To'garaklarga jami 300 nafardan ziyod o'quvchilar jalb etilgan.

Mamlakatimizda 2014-yil «Sog'lom bola yili» deb e'lon qilinganligi munosabati bilan jismonan sog'lom, ma'nan yetuk, chuqur bilim va salohiyatga ega bo'lgan yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifasini izchil davom ettirish maqsadida markazimizda reja ishlab chiqilib, qator ishlar amalga oshirilmogda.

Jumladan, «Tikuvchilik» to'garagi rahbari Nasiba Yaxshimurodova hamda «To'quvchilik» to'garagi rahbari Muyassar Otaniyozova shogirdlari tomonidan tayyorlangan turli mavsumga mos kiyimlar namoyishi bo'lib o'tdi.

Shuningdek, tuman ma'naviyat va ma'rifat bo'limi hamda viloyat xalq ta'limi boshqarmasi hamkorligida iste'dodli o'quvchi-yoshlarni jalb etish maqsadida «Haykaltaroshlik», «Me'morchilik» va «Tasviriy san'at» yo'nalishlari bo'yicha ko'rik-tanlovlar o'tkazildi.

Joriy yilda amalga oshirilgan xayrli ishlar samarasi o'laroq, yoshlarda tarixiy bilimlarni boyitish, ular ongiga tarixiy qadriyatlarimizdan faxrlanish tuyg'ularini singdirish maqsadida, viloyat O'lkashunoslik muzeyida tashkillashtirilgan «Moziyga bir nazar» mavzusidagi tadbir to'garak a'zolarida katta taassurot qoldirdi. Shu bilan birga, tegishli tashkilotlar hamkorligida

uyushtirilgan «Ranglar jilosi» tadbirida bir guruh iste'dodli o'quvchilar munosib taqdirlandi.

– Mustaqilligimizning 23 yilligiga ham o'quvchilarimiz munosib tuhfa tayyorlab qo'yishgan, – deydi Hanifa opa mamnuniyat bilan.

Suhbatimiz so'nggida xorazmlik jonkuyar ustozlarning sharaflari ishlarida muvaffaqiyatlar tiladik. Xorazmlik



tengdoshlaringizning erishayotgan yutuqlari bizni juda quvontirdi. Bolajonlar, siz ham erishgan yutuqlaringiz haqida o'rtoqlashmoqchimisiz? Unda, bizga firka-mulohazalaringiz bitilgan maktublarni yo'llang.

Ozoda TURSUNBOYEVA

Marg'ilon shahridagi 32-umumta'lim maktabida tashkil etilgan «Orolcha» yozgi sog'lomlashtirish oromgohida 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan 100 nafar «Kamalakchi» bolalar dam olishmoqda. Ularning oromgohda har tomonlama hordiq chiqarishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

«KAMALAKCHI»LAR «OROLCHA»DA

Oromgohda ingliz tili, kompyuter savodxonligi, rassomlik, bichuv-tikuv, musiqa to'garaklari faoliyat ko'rsatmoqda.

– Bir yildan buyon kompyuter savodxonligi to'garagiga qatnashib kelaman, oromgohdagi sharoit va imkoniyatdan mamnunman, – deydi 9 yoshli Oyatillo To'xtasinov.

Bolajonlar shahardagi «Yoshlar ziyoboni», tarix muzeyi, Jahon otin Uvaysiy uy-muzeyiga sayohatga borib, u yerdan katta taassurotlar bilan qaytishdi.

«Kamalakchi»lar ushbu maskanda miriqib hordiq chiqarib, o'z salomatliklarini mustahkamlab, yangi o'quv yilini o'z gacha kuch-g'ayrat bilan boshlaydilar.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahri

Phrasal verbs (Iboralar)

Dear my friends let's begin to learn phrasal verbs in English. It helps you to speak more correctly and beautiful.

(Qadrli do'stlarim, keling, ingliz tilidagi iboralarni o'rganishni boshlaymiz. Bu sizning to'g'ri va chiroyli gapirishingizga yordam beradi).



← **find out – bilib olmoq**
for example: In spring Ali went to the museum with his friends, after being the museum they couldn't find a busstop than they asked to someone and found out.



→ **look for – izlamoq**
Ex: Salima looked for her favourite book yesterday but she couldn't find.



← **look up – lug'atdan izlamoq**
Ex: We sometimes look up all new words in the dictionary when we translate texts in our lesson.



→ **look over – o'rganib chiqmoq**
Ex: Before buying a new bicycle from the market Sardor looked over it.




← **look round – ko'rib chiqmoq**
Ex: Dilshod's parents wanted a new house and they went to look round the day before yesterday.



→ **look after – g'amxo'rlik qilmoq, parvarishlamoq**
Ex: All mothers in the world look after their children than the others.

Find the continuation of these words

(Ushbu so'zlarning davomini toping)



Dinara SHAKIROVA tayyorladi

Let's play a word game (Keling, so'z o'yini o'ynaymiz)


Find right description for these pictures:



- a) It is large building with thick stone walls and tall towers.
- b) It is a huge block of ice that floats in very cold oceans ...
- c) It is a map of the world in the shape of a ball.
- d) It is an instrument that makes tiny things look large.
- e) It is an insect with two pairs of wings those are brightly colored and it is develop from caterpillars.
- f) It is a large bird with a long neck.
- g) It is an insect with hard wings that cover a pair of soft wings used to fly.

Nozima YO'LDOSHEVA

Crossword



ZUBAYDA tayyorladi

THE CAP OF THE MUSHROOM

(Qo'ziqorinning qalpog'i)

Madina went to the nurcery school. She looked around and watched the monuments of animals.

She liked the mushroom monuments best of all:

– Mummy, look, this mushroom has a beard. I think he is the father. Her mother smiled and answered:

– Uncle painter drew its beard.

– Oh, it has also got a hat?!

Why is it wearing a hat?! For the sun or for the rain? His children are also wearing hats. They are very clever, aren't they?

Vocabulary

- Nurcery school – bog'cha
- Mushroom – qo'ziqorin
- Monument – haykal
- Beard – soqol
- Smile – jilmaymoq
- Painter – rassom
- Drew-draw – chizmoq
- Clever – aqli



Shahnoza KARIMOVA

AJIB GO'SHA BOR

Zomin tog'lariga bulut egar bosh,
Lola yanog'ida shudring to'kar yosh.
Maysalarni shamol tebratib bebosh,
O'zbekiston bag'rida go'zal makon bu.

Hamid Olimjonlar jonidan suyan,
Biz ham sizdek uni suymoqqa tayyor.
Ona Vatan mehrin yurakdan tuygan,
Jizzaxda behisob o'g'il-qizlar bor.

Munajat USMONOVA,

Jizzax viloyati, Forish tumanidagi 37-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

G'allaoroliga shaydo aylagan,
Baxmal suvlariga mehr boylagan.
Ulug' bobolarim ko'nglin joylagan,
O'zbekiston baxti kulgan makon bu.



Zikrilla NE'MAT

YAGONAMSAN, O'ZBEKISTON!

Moziylardan sado kelur o'zbekim deb,
Ardoqlagay bir-birlarin o'z begim deb,
Qaro qosh-u mening qaro ko'zligim deb,
Farzandiga parvonamsan, O'zbekiston,
Olam ichra yagonamsan, O'zbekiston!

Tuprog'ingda ne-ne ulug' pirlar yotur,
Soching silab Amu birla Sirlar oqur,
Haybatingga ahli olam hayron boqur,
Shohlar yurti - shohonamsan, O'zbekiston,
Olam ichra yagonamsan, O'zbekiston!

Sharbat tomar bol-u asal bog'laringdan,
Quyosh ham lol, uygan xirmon tog'laringdan,
O'rgilayin nurga cho'mgan chog'laringdan,
Bolangdirman, sen - onamsan, O'zbekiston,
Olam ichra yagonamsan, O'zbekiston!

Muqaddasdir menga tosh-u tuproqlaring,
Boshim uzra hilpiraydi bayroqlaring,
Quvonchlariga to'lmish bugun quchoqlaring,
Hech tengi yo'q durdonamsan, O'zbekiston,
Olam ichra yagonamsan, O'zbekiston!

Sozlar chalib bulbullaring sayrog'ida,
Asragaymiz seni ko'zlar qarog'ida,
Yashnagaysan, yuraklarning ardog'ida,
Qalbdagi qo'shiq, taronamsan, O'zbekiston,
Olam ichra yagonamsan, O'zbekiston!

Bolangdirman, sen - onamsan, O'zbekiston,
Shohlar yurti - shohonamsan, O'zbekiston!



ISTIQLOLNING QIZIMAN

Bugun o'zbek nomini,
Borliq olam olgay tan.
Baxtliman O'zbekiston -
Bo'lgandan menga Vatan!

Men Istiqlol qiziman,
Yurtimning yulduziman.
Baxt va bahor yo'ldoshim,
Panohimdir Yurtboshim...

Boshimizda sof osmon,
Tinchlik barqaror bizda.
Muhayyo barcha imkon,
Yurtdagi o'g'il-qizda...

Dunyo aro davlatlar
Ko'pdir xalq ham, millat ham.
Barcha bilan barobar,
Qadam tashlayman shaxdam...

O'qib, ishlab mehnatda,
Yurt sha'nini oqlaymiz.
Olgish olib, albatta,
El qalbini chog'laymiz...



Parvoz etamiz desak,
Atrofimiz keng osmon.
Bizga umid-la boqar,
Ona yurt - O'zbekiston!

Ilitof MELIYO'ZIYEVA,
poytaxtimizning
Chilonzor tumanidagi
182-umumta'lim maktabi
7-«G» sinf o'quvchisi

HAKKA XOLA NIMA DEYDI?

IKROM HAQIDA

Oldinlari uni tuppaa-tuzuk bola deb yurardim.
Endi bilsam, tarbiyasi judayam bo'sh ekan.
Yaxshi tarbiya ko'rgan bolalar qotirilgan
hakkani tomosha qilgani ataylab muzeyga
borishadi. U bo'lsa, tirigini ranjitib o'tiribdi-ya.
Kecha u zipillaganicha tomorqaga kirib
kelib, tovuqlarga makka sepdidi. Keyin olma
daraxtining tagiga borib, shoxga kesak ota
boshladi.


Qarasam, makka ko'p, tovuqlar oz. Bir
chekkanan sekin davraga kirib, rizqimni terib
yeyishga tushdim. Ertalab go'ngtepada
chalaroq nonushta qilgan ekanman, ishtaham
shunaqayam ochilib ketdikdi!

Bazm avjga mingan pallada «g'uv-v» etgan
tovush eshitilib qoldi. Chumchuqdek keladigan bir kesak shundoqqina
tumshug'imning yonidan uchib o'tib, qarsillaganicha katakning eshigiga urildi.
Tovuqlar jon halpida har tarafga qochib qolishdi. Men bu chog'da allaqachon
terak bo'yi balandlikka chiqib olgan edim.

O'ylaganim sari menga shunisi alam qiladiki, yegan bo'lsam, tovuqlarning donidan
yebman-da, Ikromga nima? Men sizga aytсам, dunyoda hasadgo'ylikdan yomon
narsa yo'q. Bunaqalar o'ziyam yemaydi, birovgayam bermaydi. Dardi bedavo-da.

Avval aytmasam ham, endi aytaman. Uning
laqabi - «Sariqvoy». Bir marta «sariqvoy» desangiz,
g'ashi keladi. Ikki marta aytasangiz, baqirib beradi.
Uchinchisida dunyoni boshiga ko'tarib yig'lashga tushadi.
Shunchaki qiziqchilik uchun bir jig'iga tegib ko'rmasizmi?

Anvar OBIDJON,
O'zbekiston xalq shoiri



MO'MIN HAQIDA

Besh og'ayni mahallasida Mo'mintoy degan bir bola bor.
Balki uni o'zingiz ham tanirsiz - peshanasi do'ng, burni
puchug'. Shu bola menga kun bermay qo'ydi-da.

Uyning tashqaris-yu tomorqasi ham yoppasiga
ishkom. Uzum deganingiz shig'illab yotibdi. Garov
o'ynagandayam, buncha uzumni bitta mahallaning
odami yeb tugatolmaydi. Shunday bo'lgandan keyin
to'rtta hakka bilan beshta chumchuqning cho'qigani
qayoqqa borardi?!

Mo'mintoy bo'lsa, ishkomning tagiga o'tirilib,
bizni quvlagani-quvlagan, shaqildolarning ipini tortib
«jangira-jungur» qilgani ortiqcha. Qiyalab uchib
borib, o'sha shaqildog'ini bir tepib o'tay deyman-u,
yana u yerga tuzoq-puzoq qo'yilgan bo'lmasin, deb
o'zimni bosaman.

Boya payt poylab turib, husaynidan bir dona olib
qochdim. Oh, oh, oh! Shirasi tilni yoradi, deng. Qani

endi birov indamasa-yu, bemalol so'ritokka qo'nvolib uch-to'rtta shingilni bir
boshdan cho'qilab chiqsang. Qayoqda deysiz, ana, haliyam «jangira-jungur» qilib
o'tiribdi. Kunda shu ahvol.

Aslida, hamma ayb uning dadasida. Bola deganga bitta uch g'ildirakli velosiped
olib berib, uni ko'chaga quvish kerak. Bu ishning dunyoviy ahamiyati katta -
tabiatning noyob durdonalaridan biri bo'lgan bizdek parrandaning ashaddiy
kushandasi bittaga kamayadi.



NAUBAT OLTIN MEDALGA

Xorvatiyaning Zagreb shahrida erkin, yunon-rum va xotin-qizlar kurashi bo'yicha o'smirlar o'rtasida jahon chempionati bo'lib o'tdi.

Erkin kurash bo'yicha vazni 50 kilogrammgacha bo'lgan polvonlar bahsida ishtirok etgan hamyurtimiz Mahmudjon Shavkatov finalga qadar kechgan bellashuvlarda barcha raqiblarini mag'lubiyatga uchratib, kumush medalni qo'lga kiritdi.

Eslatib o'tamiz, Mahmudjon Shavkatov 2013-yili o'tkazilgan jahon chempionatida bronza medal bilan taqdirlangan edi. Endi navbat oltin medalga.

O'ZBEKISTON BIRINCHILIGI

Unda qoraqalpog'istonlik yoshlar jamoasi g'olib bo'ldi

Nukus shahrida 14-15 yoshlilar o'rtasida sportning qo'to'pi bo'yicha O'zbekiston birinchiligi o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi, Madaniyat va sport ishlari vazirliklari hamkorligida tashkil etilgan musobaqada Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan kelgan uch yuzga yaqin sportchi g'oliblik uchun o'zaro bellashdi.

– Bahslar to'rt kun davom etdi, – deydi musobaqa bosh hakami Ismoil Matxoliqov. – Qizg'in kechgan bellashuvlar 2015-yilda Xorazm viloyatida o'tkaziladigan «Umid nihollari» sport musobaqalari oldidan o'ziga xos tayyorgarlik vazifasini o'tadi.

Keskin kurashlarga boy bo'lgan musobaqa yakunida o'g'il bolalar o'rtasida qoraqalpog'istonlik gandbolchilar birinchi o'rinni, jizzaxliklar ikkinchi va xorazmlik sportchilar uchinchi o'rinni egalladi.

Qizlar o'rtasida g'oliblik Qoraqalpog'iston Respublikasi jamoasiga nasib etgan bo'lsa, ikkinchi va uchinchi o'rinlarni Sirdaryo viloyati hamda Toshkent shahri yosh sportchilari qo'lga kiritdi.

Shoh MUHAMMAD



«Dedeman Silk Road Tashkent» mehmonxonasidagi suv havzasida Yunusobod tuman Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi va qator tashkilotlar tomonidan tashkil qilingan o'quvchi-yoshlar o'rtasidagi suzish musobaqasida ishtirokchilar o'z epcilliklarini namoyish etishdi.

MOHIR SUZUVCHILAR - MUSOBAQA G'OLIBI



Ko'tarinki ruhdan boshlangan tadbirida shovvozlarning mohirliklarini 1-bolalar va o'smirlar sport maktabining murabbiylari baholab borishdi. Shunday qilib, qizlar o'rtasida o'tkazilgan bellashuvda tumandagi 17-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi Umida Murodxonova 1-o'ringa sazovor bo'ldi. U suzishdan tashqari, sportning badiiy gimnastika turi bilan shug'ullanar ekan. Shu bois, uning harakatlari yengil va chaqqon bo'lib, marraga birinchi bo'lib yetib keldi. Uning singlisi Aziza esa musobaqaning «Eng yosh faol ishtirokchisi», degan nomga sazovor bo'ldi. Bu opa-singil-

larning sportga bo'lgan qiziqishlarini ko'rib, juda quvondik.

O'g'il bolalar o'rtasida esa 259-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Ulug'bek Anvarov o'z epcilligi-yu mohirligini ko'rsata oldi:

– Bugungi musobaqa bizning sportga bo'lgan ishtiyogimizni yanada oshirdi. Har tomonlama sog'lom bo'lish bizning shiorimizga aylandi.

Yoshlarimizning sport sohasida, erishgan yutuqlaridan faxrlangan holda, yosh avlodni sportga qiziqitirish orqali ular qalbida yaxshilikka yetaklovchi fazilatlarini shakllantirish, do'stlik, fidoiylik va vatanparvarlik tuyg'usini kamol toptirish yo'lidagi tashkilotchilarning sa'y-harakatlari-yu tengdoshlaringizning bir kunini hikoya qildik, xolos.



QIZLARXON

ISTIROHAT BOG'IDAGI BELLASHUV

«Eh-he-hey, bolalar-u bolalar, musobaqaga marhamat! Kim epcil-u kim chaqqon, davramizga qo'shiling! Bellashuvda kuch sinashib iqtidoringizni ko'rsating!»

G'afur G'ulom nomidagi istirohat bog'ida qo'g'irchoqbozning bu hayqirig'i barchaning e'tiborini tortdi. Istirohat bog'i va bir qator tashkilotlar hamkorligida uyushtirilgan sport tadbiri «Sog'lom bola – sog'lom yurt kelajagi!» deb nomlandi. Ta'lim maskanlari-yu sport maktablaridan tashrif buyurgan bolalar jam bo'lib, musobaqani boshlab yuborishdi.

Tadbirida, shuningdek, Toshkent shahar mahallalarida istiqomat qiluvchi kam ta'minlangan oilalar farzandlari hamda Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari ishtirok etishdi. Bir tomonda 60 metrlik uzoqlikka yugurish bo'yicha bellashuv avjiga chiqqan bo'lsa, bir yonda qizlar arqonda sakrash, halqa aylantirish

shartlarini bajarishdi. Uzoq o'ylanganicha shaxmat donalarini surayotgan tengdoshlaringiz esa aqllarini



charxlashdi. Kichik yoshdagi ishtirokchilarga «Men sportni sevaman» mavzusidagi asfaltga rasm chizish musobaqasi ma'qul bo'ldi. Orangizda arqon tortishga qiziqmaydigan o'g'il bolalar bo'lmasa kerak-a?! Chilonzor tumanidagi 43-bolalar sport maktabidan kelgan Sardor Abdumannonov ham ana shu bellashuvda qatnashib, o'z kuchini sinab ko'rdi. Yugurishda ham tengdoshlaridan qolishmagan sportsevar do'stingiz bugungi tadbirdan olgan taassurotlarini biz bilan o'rtoqlashdi:

– Men to'rt yildan beri sportning futbol turi bilan shug'ullanaman. Sport mening sevimli mashg'ulotim bo'lgani bois, bog'dagi bu tadbirdan katta taassurot oldim.

Aslida, tadbirdan ko'zlangan maqsadlardan biri ham o'quvchilarning ta'til kunlarini mazmunli o'tkazishlariga hissa qo'shish edi.

Sayyora QODIROVA.
O'z muxbirimiz olgan suratlar

